

2021 yil 19 noyabr

**SO'NGGI PAYTLARDA VIZA OLISH UCHUN HUJJATLARNI QABUL QILISHI
BOSHLANGANLIGI HAQIDA O'ZBEKISTON FUQAROLARINING XILMA-XIL SO'ROVLAR
BILAN TELEFON QO'NG'IROQLARI SONI KO'PAYIB BORAYOTGANI SABABI TUFAYLI,
YAPONIYA ELCHIXONASI VIZA TARTIBI TO'G'RISIDAGI BARCHA MAVJUD
MA'LUMOTLARNI MAKSIMAL BATAFSIL RAVISHDA RASMIYLASHTIRIB E'Lon
QILAYAPTI-KI, AVVALOM BOR QUYIDAGI KO'RSATILGAN BARCHA TALABLARNI
CHUNQIR E'TIBOR BILAN O'QIB, IMKONIYAT QADAR BATAFSIL HOLDA TANISHIB
CHIQIB VA KERAKLI CHORALARNI AMALGA OSHIRISHINGIZNI ILTIMOS QILADI!**

Yaponiya Milliy xavfsizlik kengashining 2021-yil 5-noyabrdagi qarori asosida, tegishli vakolatli vazirlikdan "Ruxsat berish to'g'risidagi hujjat", ya'ni 審査済証 (Shinsazumisyou) olgan quyidagi toifadagi chet el fuqarolariga viza olish uchun 2021-yil 8-noyabrdan Elchixonaga ariza berish imkoniyati yaratiladi:

- (1) *Ish, o'qish, biznes muzokaralar, uchrashuvlar va boshqalar uchun 90 kunlik qisqa muddatli turish.*
- (2) *Chet ellik talabalar, texnik kadrlar, turli malaka toifadagi ishchilar va hokazolarning uzoq muddatli lavozimlarida bo'lismi.*

Tegishli vakolatli vazirlikdan "Ruxsat berish to'g'risidagi hujjat"ni olish bo'yicha savollar yuzasidan Yaponiya sog'liqni saqlash, bandlik va salomatlik vazirligining quyidagi veb-saytiga tashrif buyurib, vakolatli organlar va murojaat etish jarayoni haqida ma'lumot olishingiz mumkin:

https://www.mhlw.go.jp/stf/seisakunitsuite/bunya/0000121431_00318.html

Shuningdek, sizning taklif qiluvchi tomoningiz har qanday qiziqtirgan savollarga to'liq javob olish uchun 03-3595-2176 raqamiga Yaponianing Sog'liqni saqlash, mehnat va farovonlik vazirligi call-markaziga murojaat qilishi mumkin. Qo'ng'iroqlar soat 9:00 dan 21:00 gacha (dam olish kunlarini xam) davomida qabul qilinadi.

Viza olishga ariza berish uchun talab qilinadigan hujjatlar

Iltimos, quyidagi hujjatlarni tayyorlang va elchixonaning Konsullik bo'limiga taqdim qiling:

- (1) **Yaponiyaga qisqa muddatli biznes safari yoki qisqa muddatli (eng ko'pi 90 kun bo'lgan muddatga) ishslash, o'qish, biznes muzokaralar, uchrashuvlar va hokazo bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun.**
 - Ingliz tilida to'ldirilgan viza talabnomasi (2 nusxada)

- Xorijiy pasportning asl nusxasi
- Xorijiy pasport nusxasi (faqat A4 formati)
- Ish joyidan mehnat guvohnomasi (ariza beruvchining tegishli bo'lgan korxonadan)
- Ish safariga chiqish buyrugi (ariza beruvchining tegishli bo'lgan korxonadan)
- Taklif sababini bayon etuvchi xat (qabul qiluvchi tashkilotdan - nusxasi ham mumkin)
- Kafolat xati (faqat qabul qiluvchi tashkilot safar xarajatlarini ko'targan taqdirdagina talab qilinadi) (nusxasi ham mumkin)
- Kompaniya/tashkilotning umumiy ma'lumoti (qabul qiluvchi tashkilotdan)
- Safarning to'liq jadvali (qabul qiluvchi tashkilotdan)
- "Ruxsat berish to'g'risidagi hujjat", ya' ni 審査済証 (Shinsazumisyou) (tegishli vakolatli vazirlik tomonidan beriladi - nusxasi ham mumkin)

(2) Yaponiyaga uzoq muddatli (90 kundan ortiq) chet ellik talabalar, texnik xodimlar, ishchilar va hokazolar bo'lgan barcha "Muvofiqlik sertifikatlari" (Certificate of Eligibility – fakat Yaponiya Adliya vazirligi tomonidan beriladigan hujjat) egalari uchun.

- Ingliz tilida to'ldirilgan viza talabnomasi (2 nusxada)
- Xorijiy pasportning asl nusxasi
- Xorijiy pasport nusxasi (faqat A4 formati)
- "Muvofiqlik sertifikatlari" (Certificate of Eligibility) (nusxasi ham mumkin)
- "Ruxsat berish to'g'risidagi hujjat", ya' ni 審査済証 (Shinsazumisyou) (tegishli vakolatli vazirlik tomonidan beriladi - nusxasi ham mumkin)

E'TIBOR BERING!

- ✓ Yaponiya tomonidan tayyorlanadigan hujjatlar skaner qilingan nusxalar ko'rinishida topshirilishi mumkin, ammo ko'rib chiqish jarayonida asl hujjatlar ham talab qilinishi mumkin.
- ✓ Agar barcha zarur hujjatlar to'planmagan bo'lsa, arizangiz ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.
- ✓ Agar vizaga murojaat qilish shakli yoki taqdim etilgan hujjatlarda haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar mavjud bo'lsa, viza rad etiladi va rad etilgan kundan boshlab 6 oy ichida qayta murojaat qilishning iloji bo'lmaydi. Vizaga ariza shaklini ingliz tilida to'ldirish namunasini quyidagi Internet linkidan topishingiz mumkin:
<https://www.uz.emb-japan.go.jp/files/000398332.pdf>
- ✓ Qoida tariqasida, barcha hujjatlar ma'lum ko'rsatmalardan tashqari asl nusxada taqdim etiladi.
- ✓ Iltimos, ushbu paragraflarda sanab o'tilgan hujjatlarni tegishli tartibda taqdim eting.
- ✓ Barcha hujjatlarni fakat A4 formatda taqdim eting.

- ✓ Hujjatlarni stepler yoki qog'oz qisqichi bilan bog'lamang.
- ✓ Qoida tariqasida, har bir talab qilinayotgan hujjat bitta nusxada taqdim etiladi, viza ariza shakllari esa, - ikki nusxada.
- ✓ Qabul qilingan hujjatlar qaytarib berilmayoaydi.
- ✓ Arizani ko'rib chiqish jarayonida boshqa qo'shimcha hujjatlar ham talab qilinishi mumkin.
- ✓ Yaponiyaga sayyohatchilar uchun turistik maqsadlarda yoki qarindosh yoki tanishlarga tashrif buyurish maqsadida viza olish uchun hujjatlarni qabul qilish vaqtincha to'xtatilgan va yaqin oradada hali amalga oshirilmaydi.
- ✓ 2021-yil 4-yanvardan keyin Yaponiyadan vaqtincha chiqib ketgan uzoq muddatli maqomiga ega bo'lgan (在留資格) barcha chet el fuqarolariga pasportida qayta kirishga ruxsat (re-entry permit) bo'lsa, Yaponiyaga kirishga ruxsat etiladi.

Karantin tafsilotlari:

Yaponiyaga kirishni rejorashtirayotgan barcha fuqarolar COVID-19 testini O'zbekistondan chiqishdan 72 soat oldin topshirishlari va PCR sinov natijalari to'g'risidagi guvohnomani olishlari kerak.

DIQQAT!

- ✓ 2021 yil 1 iyuldan boshlab NASOPHARYNgeal tamg'a, tupurik tahlili (Saliva) yoki Nasopharyngeal va Oropharyngeal tambalar asosida PCR testi o'tkazilishi kerak. O'ROPHARYNXdan SMEAR asosida o'tkazilgan test sinovlari natijalari qabul qilinmaydi. Qog'ozdagi sertifikatda ingliz tilida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: tadqiqot uchun biomaterial (formulasion STRICTLY Nazopharyngeal tampna, Saliva yoki Nasopharyngeal va Oropharyngeal swabs), diagnostika usuli, sinov sanasi va vaqt va boshqalar.
 - COVID-19 uchun PCR test sertifikatining mazmuniga qo'yiladigan talablar:

<https://www.mhlw.go.jp/content/000825144.pdf>
 - COVID-19 uchun PCR test natijalarining shakli:

<https://www.mhlw.go.jp/content/000808170.pdf>
- ✓ Shuni ham ta'kidlash kerakki, Yaponiya hukumati 2021 yil 17 sentyabr kuni O'zbekistondan kirgan va O'zbekistonga qaytib kelgan fuqarolarga qarshi infeksiya tarqalishining oldini olish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qo'llash bo'yicha yangi qaror qabul qildi.
- ✓ Ushbu chora-tadbirlarning asosiy nuqtalari quyidagicha. Agar Siz Yaponiyaga borishni rejorashtirmoqchi bo'lsangiz, so'nggi ma'lumotlarni tekshiring - hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan quyidagi karantin qoidalari

qo'llaniladi:

- 17 sentyabr kuni O'zbekiston "koronavirusning mutant shtammlari bilan bog'liq bo'limgan, chegara nazoratida maxsus davolanishni talab qiladigan koronavirus infektsiyasiga chalingan mamlakatlar/hududlar" deb belgilangan (designated countries/regions in response to coronavirus infection other than coronavirus variants of special treatment on border measures).
- O'zbekistondan kirib kelayotgan shaxslar Sanitariya-karantin stantsiyasi boshlig'i (SKS tomonidan taqdim etiladigan yashash joylari) tomonidan belgilanadigan joylarda 3 kun (kirish kuni hisobga olinmagan holda) turishi kerak bo'ladi.
- Ya'ni, O'zbekistondan kelgan barcha yo'lovchilar kirishdan keyingi 3-kuni (kirish kuni hisobga olinmagan holda) koronavirus tekshiruvidan o'tishlari kerak bo'ladi. Sinovlarning har qandayida salbiy natija olgan shaxslar Sanitariya-karantin stantsiyasi tomonidan ko'rsatilgan joydan chiqariladi va kirishdan keyin 14 kun ichida uyda karantin qilinishi kerak.
- Ushbu chora-tadbirlar 2021 yil 20 sentyabr kuni soat 00:00 dan kuchga kirdi. Agar siz Yaponiyaga safar qilishni rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, Yaponiya sog'liqni saqlash, mehnat va farovonlik vazirligining quyidagi aloqa raqamlari orqali so'nggi ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri Yangi koronavirus infektsiyalari bo'yicha maslahat xizmati orqali tekshiring (karantinni hozirgi vaqtida kuchaytirish to'g'risida ma'lumot):
 - Chet eldan qo'ng'iroqlar uchun:
+81-3-3595-2176 (yapon va ingliz tillarida mavjud)
 - Yaponiyadan:
0120-565-653 (yapon tilida)